

BO'LAJAK HAMSHIRALARNI KREATIV KOMPTENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA DIDAKTIK YONDASHUVLAR VA RAQAMLI TA'LIM

Annotatsiya. Mazkur maqolada raqamli ta'lim muhitining didaktik imkoniyatlari hamda bo'lajak hamshiralarda kreativ kompetensiyani shakllantirishga oid nazariy yondashuvlar tahlil qilinadi. Shuningdek, kreativ kompetensiyaning tarkibiy qismlari, uni rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning o'rni va didaktik metodlarning ahamiyati konseptual asosda yoritiladi.

Kalit so'zlar: raqamli ta'lim, didaktik yondashuvlar, konnektivistik yondashuv, konstruktivistik yondashuv, didaktik tamoyillar, hamshiralik ta'limi.

DIDACTIC APPROACHES AND DIGITAL EDUCATION IN THE DEVELOPMENT OF CREATIVE COMPTENSIONS OF FUTURE NURSES

Annotation. This article analyzes the didactic possibilities of the digital learning environment and theoretical approaches to the formation of creative competence in future nurses. Furthermore, the structural components of creative competence, the role of digital technologies in its development, and the significance of didactic methods are elucidated on a conceptual basis.

Keywords: digital education, didactic approaches, connectivist approach, constructivist approach, didactic principles, nursing education.

ДИДАКТИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ И ЦИФРОВОЕ ОБУЧЕНИЕ В РАЗВИТИИ ТВОРЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ МЕДСЕСТЕР

Аннотация. В данной статье анализируются дидактические возможности цифровой образовательной среды и теоретические подходы к формированию креативной компетентности у будущих медсестер. Также на концептуальной основе освещаются структурные компоненты креативной компетентности, роль цифровых технологий в ее развитии и значение дидактических методов.

Ключевые слова: цифровое образование, дидактические подходы, коннективистский подход, конструктивистский подход, дидактические принципы, сестринское образование.

Kirish. Hamshiralik ta'limida raqamli transformatsiya — pedagogik amaliyotlarni takomillashtirish va kelajakdagi tibbiyot xodimlarini o'zgarib borayotgan sog'liqni saqlash sohasi uchun tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. Oliy ta'limda raqamli texnologiyalarning integratsiyasi o'qitish metodlarini tubdan o'zgartirib, o'quv jarayonlarini boyitish va o'qitish usullarini optimallashtirish uchun yangi imkoniyatlarni taqdim etmoqda.

Sog'liqni saqlash tizimidagi texnologiyalar tez sur'atda rivojlanayotganligi sababli, hamshiralik ta'limi ham shunga mos tarzda yangilanib borishi lozim. Bitiruvchilarning kerakli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi uchun ta'lim jarayonlariga raqamli transformatsiyani kiritish zarur[2].

Raqamlashtirish — bu insonlarning kundalik hayotiga raqamli texnologiyalarni integratsiya qilish, bu orqali tasvir, ovoz, hujjatlar yoki signallarni raqamli formatga (baytlarga) aylantirish orqali bilim mazmunini ifodalashdir. Raqamlashtirish xarajatlarni kamaytirish, yangi sifatlarni yaratish, samaradorlikni oshirish va yangi bilimlar orqali raqamli xizmat va mahsulotlarda yangi qadriyatlar yaratishi kutiladi (Beleigoli va boshq., 2019; Mather va boshq., 2018).

Hamshiralik ta'limida raqamlashtirish deganda, pedagogik o'quv dasturlariga raqamli materiallarning integratsiyasi tushuniladi [5].

Tadqiqot usuli va materiallar. Ushbu ilmiy ishda nazariy-tahliliy yondashuv asosiy tadqiqot usuli sifatida tanlandi. Bu yondashuv orqali raqamli ta'lim muhitida bo'lajak hamshiralarning kreativ kompetensiyasini rivojlantirishga doir ilg'or nazariy qarashlar, didaktik tamoyillar, zamonaviy pedagogik konsepsiyalar va xorijiy amaliyotlar tizimli tarzda o'rganildi hamda tahlil qilindi.

Nazariy-tahliliy yondashuv ilmiy adabiyotlar, maqolalar, dissertatsiyalar, monografiyalar, davlat ta'lim standartlari, metodik qo'llanmalar, xorijiy tadqiqotlar va boshqa ilmiy-huquqiy hujjatlar asosida amalga oshirildi. Ushbu usul orqali mavzuga oid mavjud ilmiy asoslar aniqlanib, mavzuning dolzarbligi, muammoli jihatlari va rivojlanish istiqbollari belgilab olindi.

Asosiy qism. Yangi rivojlanishlar sur'ati, yangi texnologiyalar va axborot boshqaruvi tizimlarining joriy etilishi natijasida hamshiralik amaliyoti uchun zarur bo'lgan ma'lumot va ko'nikmalar hajmi ortdi. Hamshiralik dasturlarida tahsil olayotgan talabalar sog'liqni saqlash tizimi tuzilmasidagi o'zgarishlarga moslashayotgan yangi rollar bilan yuzlashmoqda. Hamshiralik kasbi sog'liqni saqlash tizimidagi eng yirik kasbiy guruh hisoblanadi. Robert Wood Johnson Foundation tomonidan taqdim etilgan "Hamshiralik kelajagi" (IOM, 2011) hisobotida "kelajakdagi muvaffaqiyatli sog'liqni saqlash tizimi — hamshiralik kelajagiga bog'liq" ekani ta'kidlanadi.

Ushbu hisobotda umr bo'yi o'qish (lifelong learning) va asosiy kompetensiyalarni rivojlantirish zarurati qayd etiladi. Bu esa an'anaviy "ma'lumot uzatish" yondashuvidan farqli bir qarashni talab etadi. Asosiy kompetensiyalarni rivojlantirish, talabalarni kasbiy faoliyatga kirishish vaqtida bilishi lozim bo'lgan asosiy bilimlarni aniqlashni va bu bilimlar asosida keyingi o'rganishga tayanch yaratishni talab qiladi[1].

Axborot texnologiyalarining joriy etilishi hamshiralalar tomonidan parvarish hujjatlarini yuritish va ma'lumot olish shakllarini o'zgartirmoqda. Endilikda boshqa soha mutaxassislari hamshiralik hujjatlaridan foydalanishi, hamshiralalar esa boshqa sohalarning ma'lumotlariga oson kirish imkoniga ega. Ilgari yodlab olinishi kerak bo'lgan bilimlar (masalan, dori tafsilotlari yoki infuzion eritma formulalari) endilikda birgina tugma orqali kompyuterda mavjud.

Ammo bu texnologiyalardan samarali foydalanish uchun ularning ta'siri, imkoniyatlari va oqibatlari haqida bilim va ko'nikma talab qilinadi. Sog'liqni saqlash amaliyoti va hamshiralik roli texnologik taraqqiyot bilan o'zgarib bormoqda. Elektron tizimlardagi qarorlarni qo'llab-quvvatlovchi algoritmlardan foydalana olish uchun hamshiralalar mavzuga oid bilim, muammoni hal qilish va kreativ fikrlash qobiliyatlariga ega bo'lishlari lozim (IOM, 2011).

Asosiy kompetensiyalar va yirik tushunchalarga e'tiborni qaratish orqali ko'p ma'lumot yodlashdan ko'ra, tanqidiy va kreativ fikrlay oladigan, asosiy bilimlarni yangi sharoitga moslasha oladigan va klinik tafakkurni qo'llay oladigan hamshiralalar tayyorlash mumkin.

Benner va boshqa olimlar (2009) hamshiralik ta'limini nafaqat hozirgi ish talablari, balki kelajak ehtiyojlariga ham javob beradigan tizimga aylantirish zarurligini ilgari surgan. Doimiy izlanish va klinik o'rganish ko'nikmalarini dars va amaliyotda bilimni qo'llash orqali integratsiya qilish zarurligi ta'kidlangan.

Ular hozirgi tizimdagi nazariya va amaliyot o'rtasidagi tafovutlarni ham ko'rsatgan. Bu tafovutni bartaraf etish uchun yangi pedagogik yondashuvlar zarur, ular hamshiralik ta'limini amaliy ehtiyojlarga moslashtiradi.

Kreativ kompetensiyani rivojlantirish talabalarni yangi vaziyatlarga mos tushunchalarni qo'llay olishiga yordam beradi. Masalan, dori nomlarini yod olishdan ko'ra, dori guruhlarini tushunish va bu bilimni yangi paydo bo'layotgan dorilarga nisbatan qo'llay olish ko'proq foyda keltiradi.

Kreativ kompetensiyani rivojlantirishga oid turli konseptual yondashuvlar mavjud bo'lib, ularning har biri muayyan nazariy tamoyillarga asoslanadi va bir qancha olimlar bu yondashuvlar bo'yicha ish olib borgan. Bir qancha Konstruktivistik yondashuvga ko'ra, o'quvchi bilimni tayyor

180 holatda emas, balki o'z tajribasi asosida mustaqil yaratadi. Bu yondashuv raqamli ta'lim muhitida interaktiv, muammoli va reflektiv o'quv faoliyati orqali amalga oshiriladi.



1-rasm. Zamonaviy ta'limdagi 4 ta konseptual yondashuv

Konstruktivistik yondashuv ta'lim oluvchini passiv bilim oluvchi emas, balki faol subyekt sifatida ko'radi. Bu yondashuvga ko'ra, o'quvchilar o'z tajribalari asosida yangi bilimlarni mustaqil ravishda yaratadi, tahlil qiladi va real muammolarni hal qilish jarayonida o'zlashtiradi. Ayniqsa, raqamli ta'lim muhiti bu jarayonni yanada erkin va interaktiv tarzda amalga oshirish imkonini beradi. J. Piaget, L. Vygotskiy, Jerome Bruner, Ernst von Glasersfeld kabi ko'plab olimlar bu yondashuv haqida izlanishlar olib borishgan. **Konstruktivistik yondashuvning kreativ kompetensiyaga qanday ta'sir ko'rsatishi 1- jadvalda o'z aksini topgan.**

1-jadval

Konstruktivistik prinsip	Kreativlikdagi ko'rinishi
Bilim faol ravishda quriladi	O'quvchi mustaqil ravishda yangi yechimlar va g'oyalar ishlab chiqadi
Muammo asosida o'rganish (problem-based)	Real hayotiy vaziyatlarda ijodiy fikrlashni qo'llayd
Hamkorlikda o'rganish (collaborative learning)	Jamoaviy ijodiy ishlar orqali turli g'oyalardan foydalanadi
O'zaro refleksiya va tahlil	O'zining fikriga tanqidiy qarash, takomillashtirish
Kontekstual o'rganish (hayotiy vaziyatga bog'lash)	G'oyalarni amaliyot bilan bog'lash, innovatsion yondashuvlar

Konnektivistik yondashuv esa bilimlar tarmoq orqali shakllanishini ta'kidlaydi. Siemens (2005) tomonidan asoslangan ushbu yondashuv axborot texnologiyalari va ijtimoiy o'zaro aloqalar asosida bilim yaratishni ilgari suradi. Bu yondashuv doirasida o'quvchilar onlayn hamkorlik, raqamli resurslar bilan ishlash va global bilim almashinuvi orqali kreativ kompetensiyalarni rivojlantiradi.

Ko'p intellektlar nazariyasi (G. Gardner, 1983) esa insondagi turli intellekt turlarini inobatga olib, ta'limni individuallashtirish va kreativ salohiyatni har tomonlama faollashtirishni nazarda tutadi. Raqamli muhit bu nazariyani amaliyotga tatbiq qilishda keng imkoniyatlar yaratadi: vizual, musiqiy, lingvistik va boshqa intellektlarni qo'llab-quvvatlovchi texnologiyalar orqali har bir talabaning o'ziga xos salohiyati yuzaga chiqadi.

Kritik tafakkur yondashuvi esa ijodiy fikrlashni tahliliy yondashuv bilan uyg'unlashtirib, o'quvchini musgytaqil qaror qabul qilishga, muqobil fikrlarni solishtirishga va asosli xulosalar

chiqarishga o'rgatadi. Bu jarayonda raqamli platformalar, masalan, forumlar, bloglar, va muammoli vazifalar asosida muloqotli muhit tashkil etiladi.

Quyidagi 2-jadvalda kreativ kompetensiyani o'rganishda asosiy bo'lgan to'rt konseptual yondashuv, ularning nazariy asoschilari va muhim ilmiy asarlari qisqacha bayon etilgan.

2-jadval

Yondashuv	Asosiy o'rgangan olimlar	Asarlari	Izohlar
Konstruktivistik	Vygotsky, L. S.	<i>Mind in society: The development of higher psychological processes.</i>	O'quvchi bilimni tayyor holatda olmaydi, balki uni shaxsiy tajriba va faol ishtirok asosida "quradi"
Konnektivistik	Downes.S. Siemens, G.	<i>Connectivism: A learning theory for the digital age.</i>	Ta'lim jarayonida bilimlarni o'zaro bog'langan tarmoqlar orqali shakllanishini ta'kidlaydi.
Ko'p intellektlar nazariyasi	Gardner, H	<i>Intelligence reframed: Multiple intelligences for the 21st century.</i>	Har bir o'quvchida turli xil intellekt turlari mavjudligini ta'kidlaydi.
Kritik tafakkur	Paul, R., & Elder, L. Halpern, D. F.	<i>Thought and knowledge: An introduction to critical thinking</i>	O'quvchini chuqur fikrlash, ma'lumotlarni tahlil qilish, asosli xulosa chiqarishga o'rgatadi.

Tizimlarni o'zgartirish uchun muammolarni hal qilishda tanqidiy va reflektiv fikrlashdan foydalana oladigan, islohot va yangiliklardan cho'chimaydigan innovatsion tafakkurga ega shaxslar zarur deb ta'kidlaydi ko'plab olimlar.

Innovatsiya prinsiplari hamshiralik ta'limida yangi pedagogikalarni joriy etish uchun imkon yaratadi. Innovatsion pedagogika — bu an'anaviy qarashlar va taxminlarni buzib, ularni yangi yoki yangicha shaklda qayta qurishni anglatadi. Innovatsiya ko'pincha mavjud holatdan yoki hozirgi yutuqlardan qoniqmaslikdan kelib chiqadi va odatda imkoniyat bilan boshlanadi. Shu ma'noda, kreativ kompetentlik aynan ana shunday imkoniyatdir.

Raqamli ta'lim muhitlari o'quvchilar uchun o'z vaqtida va individual yondashuv asosida ta'lim olish imkonini beradi. Bunda zamonaviy texnologiyalar - video darslar, interaktiv simulyatsiyalar, virtual laboratoriyalar, gamifikatsiya elementlari orqali o'quv jarayoni yanada qiziqarli va mazmunli bo'ladi. Bu esa kreativ kompetensiyani faollashtirishga qulay zamin yaratadi.

Shuningdek, raqamli vositalar yordamida o'quvchilar mustaqil o'rganish, izlanish va o'z g'oyalarini erkin ifodalash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu imkoniyatlar o'z navbatida yuqoridagi konseptual yondashuvlar bilan uyg'unlashib, kreativ kompetensiyani tizimli shakllantirishga xizmat qiladi.

Xulosa. Bo'lajak hamshiralarni raqamli ta'lim muhitida tayyorlashda konseptual yondashuvlar muhim didaktik asos bo'lib xizmat qiladi. Konnektivistik yondashuv talabalarning raqamli tarmoqlar orqali mustaqil bilim olishini qo'llab-quvvatlaydi. Konstruktivistik yondashuv esa bilimni amaliyot bilan bog'lash va muammoli vaziyatlarni hal qilish orqali kreativ fikrlashni rivojlantiradi. Ko'p intellektlar nazariyasi har bir o'quvchining individual qobiliyatlarini inobatga olgan holda ta'limni shaxsiylashtirish imkonini beradi. Kritik tafakkur yondashuvi esa analitik va mas'uliyatli qaror qabul qilishni shakllantirishga xizmat qiladi. Ushbu yondashuvlarning raqamli vositalar bilan uyg'unlashuvi kasbiy va ijodiy kompetensiyalarni samarali rivojlantirish imkonini yaratadi.

1. Donna M. Ellis University of Northern Colorado Applying learner-centered teaching in the nursing education classroom: from theory to practice 8-1-2013
2. Tiago Horta Reis da Silva & Aby Mitchell (2024) – “Chapter 4. Integrating Digital Transformation in Nursing Education: Best Practices and Challenges in Curriculum Development”
3. J. Rose Jenila1, Prof Dr Pradeep V S “Revolutionizing Nursing Education and Practice: The Role of Technology in the Digital Era” International Journal of Research Publication and Reviews, Vol 6, no 2, pp 1728-1729 February 2025
4. Abdulkarim O, Agga MAN RN, Keith Nester A Lavin, “Use of Technology and Innovations in Nursing Education: A Systematic Literature Review” International Journal of Innovative Science and Research Technology ISSN No:-2456-2165 Volume 7, Issue 11, November – 2022
5. Leena Honkavuo, PhD, RNT, RN, RM, RDN, “Digital Teaching in Nursing Education: A Quantitative Study on Nursing Students’ Views” International Journal of Caring Sciences May-August 2020 Volume 13 | Issue 2| Page 837
6. Gardner, H. (1999). *Intelligence reframed: Multiple intelligences for the 21st century*. New York: Basic Books.
7. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in society: The development of higher psychological processes*. Cambridge, MA: Harvard University Press.
8. Paul, R., & Elder, L. (2001). *The miniature guide to critical thinking concepts and tools*. Dillon Beach, CA: Foundation for Critical Thinking.
9. Ibodova U. Sh, Hamshiralik ta'limida raqamli texnologiyalarni joriy etishning pedagogik aspektlari ilmiy-amaliy konferensiya Buxoro viloyati Pedagogik mahorat markazi 2025-yil 20-may